ISSN 218-8088

XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI

"XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI" JURNALI

Muassis:
"Xalq ta'limi" jurnali tahririyati DUK

PUBLIC EDUCATION BULLETIN

"PUBLIC EDUCATION BULLETIN" JOURNAL

2024

6-son

(Noyabr-Dekabr)

Jurnal 2015-yildan chiqa boshlagan

(O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2014-yil 17-maydagi 137-sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan)

TOSHKENT

O‘zbekiston respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “ Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik kurslarida o‘qitish va sertifikat-lash axborot tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi **2024-yil 29-may, 176-son buyrug‘i 4**

O‘zbekiston respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Qonunchilik hujjatlarini ijroga qabul qilish haqida”gi **2024-yil 7-iyun,183-son buyrug‘i 6**

O‘zbekiston respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlar uchun namunaviy etika qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi **2024-yil 12-iyun,187-son buyrug‘i 15**

O‘zbekiston respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining” Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan variativ o‘quv rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi **2024-yil 20-iyun, 190-son buyrug‘i 23**

O‘zbekiston respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Davlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagoglariga kasbiy sertifikat berish to‘g‘risida”gi **2024-yil 28-iyun, 197-son buyrug‘i 111**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik kurslarida o‘qitish va sertifikatlash axborot tizimini joriy etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 — 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida» 2022-yil 11-maydagi PF-134-son, «Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2023-yil 26-maydagi PF-79-son farmonlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2023-yil 12-dekabrdagi 681-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik kurslarida o‘qitish va sertifikatlash axborot tizimini joriy etilsin.

2. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov)ning Tanlovni xalqaro tajribalarni o‘rgangan holda zamonaviy usullardan foydalanib, ochiq va shaffof o‘tkazilishini ta’minlash maqsadida ushbu yo‘nalish bo‘yicha tajribaga ega tashkilotlarni jalb etish bo‘yicha taklifiga rozilik berilsin.

3. Ta’lim sohasida islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi Kengashining 2024-yil 16-maydagi 32-sonli bayonida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik kurslarida o‘qitish va sertifikatlash axborot tizimini joriy etish bilan bog‘liq xarajatlarga mablag‘ ajratish masalasi yuzasidan jamg‘armaning tegishli qarori qabul qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish bo‘limi (I.Xoliqulov) umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik kurslarida o‘qitish va sertifikatlash axborot tizimini joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi tomonidan aniq hisob-kitoblar bilan taqdim etilgan talabnomalarga muvofiq moliyalashtirishni amalga oshirsin.

5. Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi (J.Mannonov)ga:

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik kurslarida o‘qitish va sertifikatlash axborot tizimini joriy etish bo‘yicha tasdiqlangan texnik talablarga asosan bugungi kundagi bozor narxlarini o‘rganish;

o‘tkazilgan o‘rganishlar natijasi bo‘yicha xizmatlar xaridi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq davlat xaridlarini amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

6. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova)ga umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik kurslarida o‘qitish va sertifikatlash axborot tizimini joriy etish bilan bog‘liq xarajatlar yuzasidan tuzilgan shartnomalarni g‘aznachilikda ro‘yxatdan o‘tkazish va ushbu shartnomalar bo‘yicha to‘lovlarni kechiktirmasdan amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

7. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov)ga umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik kurslarida o‘qitish va sertifikatlash axborot tizimini reyestr.uz portalidan ro‘yxatdan o‘tkazish hamda tizimga “Kiberxavfsizlik” davlat unitar korxonasidan ekspertiza xulosalarini olish ishlarini tashkillashtirish vazifalari yuklatilsin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari T.Komilov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 29-may,
176-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I
Qonunchilik hujjatlarini ijroga qabul qilish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6166-sonli Farmoni va “ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-sonli qarori ijrosini ta’minlash va qonunchilik hujjatlari topshiriqlarining amalga oshirilishi bo‘yicha nazorat va hisobdorlikni tashkil etish maqsadida, **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-210-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tadbirlar rejasi (2024-yil 7-iyun, 12/1-1873 tartib raqamli) ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu qonunchilik hujjatlari topshiriqlari amalga oshirilishining aniq grafiklari, xususan, tadbirlar, bajarish mexanizmi ko‘rsatilgan topshiriqlar, ijrochilar va muddatlar nazarda tutilgan “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun va Qonunning ijrosi doirasida 2024-yilda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan “Yo‘l xaritasi” bo‘yicha Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining nazorat rejasi” **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar birinchi rahbarlari:

qonunchilik hujjatlari va nazorat rejadagi topshiriqlar bo‘yicha mas’ullarni belgilab, ijrosini ta’minlash choralarini ko‘rsin;

qonunchilik hujjatlari va nazorat rejadagi topshiriqlarning o‘z vaqtida, to‘liq va natijali ijro etilishini shaxsan tanqidiy tahlil qilib, bajarilishi ustidan shaxsiy nazoratni ta’minlasin;

qonunchilik hujjatlari va nazorat rejadagi topshiriqlar ijro natijalari bo‘yicha vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasiga axborot kiritib borsin.

Qonun bilan o‘rnatilgan talablar va mexanizmlarni o‘z tashkilotlarida samarali joriy etish, bu jarayonda xodimlarning huquq va manfaatlari himoyasini ta’minlash hamda ular uchun zarur tushuntirish ishlarini olib

borish birinchi rahbarlar zimmasiga yuklatiladi.

4. Belgilansinki, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlarda "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining amalga oshirilishini tahlil qilish, o'rganish, umumlashtirish hamda ijro natijalari bo'yicha axborot taqdim etishga vazirlik markaziy apparatining Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi (Sh.Xamrayev) mas'ul hisoblanadi.

5. Devonxona (X.Raximbayeva) ushbu buyruqni **bir kun muddatda** barcha tizim tashkilotlariga yetkazsin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 7-iyun,
183-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2024-yil 7-iyundagi
183-son buyrug‘iga

ILOVA

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun va Qonunning ijrosi doirasida 2024-yilda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan “Yo‘l xaritasi” bo‘yicha Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining NAZORAT REJASI

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	Davlat fuqarolik xizmatini tashkil etish tizimini yo‘lga qo‘yish, shu jumladan, davlat fuqarolik xizmati tatbiq etiladigan davlat organlari va tashkilotlari ro‘yxati hamda **Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestri**ni belgilash. *(“Yo‘l xaritasi” 1-bandi)*	Davlat xizmatini rivojlantirish agentligida tayyorlanadigan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasiga taklif kiritish.	2024-yil iyun	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari
2.	Davlat organlari va tashkilotlarida **yaqin qarindoshlar bevosita bo‘ysunuvda** yoki **nazorat yo‘nalishidagi tashkilotlarda ishlayotgan holatlar**ni aniqlash hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. Aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o‘rganish hamda manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish. *(“Yo‘l xaritasi” 5-bandi)*	Axborot-tahliliy ma’lumotnoma	2024-yil iyul	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov), Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi (Sh. Xamrayev), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
3.	Davlat organlari va tashkilotlarida hamda ularning bo'ysunuvida bo'lgan tashkilotlarda xodimlar o'rindoshlik asosida ishlayotgan holatlarni aniqlash hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. Aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o'rganish hamda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish choralarini ko'rish. *("Yo'l xaritasi" 6-bandi)*	Axborot-tahliliy ma'lumotnoma	2024-yil iyul	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari
4.	Davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish holatlarini aniqlash. Aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o'rganish hamda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish choralarini ko'rish. *("Yo'l xaritasi" 7-bandi)*	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil oktabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi (Sh.Xamrayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari
5	2023-yil davomida yaqin qarindoshi mansabdor shaxs sifatida ishlayotgan obyektni tekshirishda davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining ishtirok etish holatlarini aniqlash hamda manfaatlar to'qnashuvi holatlarini tahlil qilish. *("Yo'l xaritasi" 8-bandi)*	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil oktabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi (Sh.Xamrayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
6	Davlat organlari va tashkilotlaridan ishdan bo'shagan xodimning ikki yil ichida o'z ish joyida bevosita nazoratida bo'lgan tashkilotlarga ishga kirish holatlarini aniqlash hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. Aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o'rganish hamda manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish choralarini ko'rish. *("Yo'l xaritasi" 9-bandi)*	Axborot-tahliliy ma'lumotnoma	2024-yil iyul	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari
7	Xodim o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilotning nazoratida bo'lgan tadbirkorlik faoliyati subyektining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilgan, shuningdek, ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a'zosi bo'lgan holatlarni aniqlash hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. Aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o'rganish hamda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish choralarini ko'rish. *("Yo'l xaritasi" 11-bandi)*	Axborot-tahliliy ma'lumotnoma	2024-yil iyul	Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi (Sh.Xamrayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari
8	Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini baholash uchun joriy etilgan "E-anticor.uz" platformasi orqali 2023-yildagi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq ma'lumotlarni tahlil qilish. *("Yo'l xaritasi" 12-bandi)*	Axborot-tahliliy ma'lumotnoma	2024-yil iyul	Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi (Sh.Xamrayev), Maktabgacha ta'lim agentligi (A.Shin), Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev)

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
9	Davlat organlari va tashkilotlari xodimlari tomonidan 2024-yilda manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha to'ldirilgan yillik deklaratsiyalarni tahlil qilish. Aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o'rganish hamda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish choralarini ko'rish. *("Yo'l xaritasi" 13-bandi)*	Axborot-tahliliy ma'lumotnoma Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil iyul 2024-yil oktabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi (Sh.Xamrayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari
10	Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berish va ularni tartibga solish tizimi joriy etilmagan tashkilotlardagi holatlarni tahlil qilish. *("Yo'l xaritasi" 15-bandi)*	Axborot-tahliliy ma'lumotnoma	2024-yil avgust	Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi (Sh.Xamrayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari
11	Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari, odob-axloq komissiyalari tashkil etilganligini va faoliyati yo'lga qo'yilganligini tahlil qilish hamda mavjud imkoniyatlar doirasida alohida tuzilmalarni tashkil etish choralarini ko'rish. *("Yo'l xaritasi" 16-bandi)*	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil oktabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi (Sh.Xamrayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
12	2023-yil davomida davlat organlari va tashkilotlariga jismoniy va yuridik shaxslardan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish. *("Yo'l xaritasi" 17-bandi)*	Axborot-tahliliy ma'lumotnoma	2024-yil sentabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi (Sh.Xamrayev), Murojaatlar boshqarmasi (J.Musurmonov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari
13	Davlat organlari va tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berishning elektron tizimi yo'lga qo'yilganligini o'rganish hamda bunday tizimni joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilish. *("Yo'l xaritasi" 19-bandi)*	Axborot-tahliliy ma'lumotnoma	2024-yil sentabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi (Sh.Xamrayev), Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari
14	Manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash uchun davlat organlari va tashkilotlari axborot tizimlarining o'zaro integratsiyasi holatlarini o'rganish. Bunda manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash uchun zarur ma'lumotlarni so'rov asosida olish imkoniyatini yaratish choralarini ko'rish. *("Yo'l xaritasi" 20-bandi)*	Axborot-tahliliy ma'lumotnoma	2024-yil sentabr	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov), Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi, (Sh.Xamrayev) Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
15	Mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnoma va ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyaning tasdiqlangan namunaviy shakllarini davlat organlari va tashkilotlari rasmiy veb-saytlariga joylashtirish. *("Yo'l xaritasi" 24-bandi)*	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil sentabr	Axborot xizmati (D.Sobirova), Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi (Sh.Xamrayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari
16	Davlat organlari va tashkilotlari xodimlari ish stolida eslatma sifatida foydalanishi uchun manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlar va bunday illyustrativ tarqatma materiallarni ishlab chiqish hamda tarqatish. *("Yo'l xaritasi" 29-bandi)*	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil avgust	Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi (Sh.Xamrayev)
17	Davlat organlari va tashkilotlarining yoki tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarning manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya holatlari bo'yicha xabar berish mumkin bo'lgan aloqa kanallarini OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ'ib qilish. *("Yo'l xaritasi" 32-bandi)*	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil oktabr	Axborot xizmati (D.Sobirova), Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi (Sh.Xamrayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
18	Qonunchilik va ichki lokal hujjatlarni to'qnashuvi to'g'risida'gi Qonun talablariga muvofiqlashtirish.	Qonunchilik va ichki lokal hujjatlarni xatlovdan o'tkazish Takliflar ishlab chiqish	2024-yil iyun	Yuridik boshqarma (O.Ibrohimov), Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi (Sh.Xamrayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari
19	"Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunni tarkibiy va hududiy bo'linmalarga elektron shaklda yetkazish.	Elektron shaklda yetkazish	2024-yil 7-iyun	Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi (Sh.Xamrayev), Devonxona (X.Raximboyeva), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari
20	"Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-sonli qarorining matnlaridagi normalarning mohiyati va ahamiyatini xodimlarga tushuntirish bo'yicha uchrashuvlar, seminarlar, davra suhbatlari va muloqotlar o'tkazish.	Targ'ibot bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash va amalga oshirish	Reja asosida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi (Sh.Xamrayev), Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlar uchun namunaviy etika qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida” 2024-yil 1-fevraldagi Qonunida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlar uchun namunaviy etika qoidalari 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlar uchun namunaviy etika qoidalarini tanishtirish varaqasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov) Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov) bilan birgalikda:

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlar uchun namunaviy etika qoidalari (keyingi o‘rinlarda - Qoidalar)ga amal qilinishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatsin;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlar etikasi bilan bog‘liq qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, zamon talablari asosida Qoidalarni takomillashtirib, zarur holatlarda unga o‘zgartirish hamda qo‘shimchalar kiritish yuzasidan takliflar kiritib borsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari boshliqlari:

mazkur Qoidalarni tizimdagi barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga yetkazsin;

Qoidalarning maqsad va vazifalarini maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi barcha pedagog-xodimlarni maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasasi rahbariyati tomonidan tanishtirilishini ta’minlasin.

4. Axborot xizmati (D.Sobirova) mazkur buyruq bilan tasdiqlanayotgan Maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlar uchun namunaviy etika qoidalarini vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritib borsin.

5. Devonxona (H.Raximboyeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari F.Boqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 12-iyun,
187-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil 12-iyundagi
187-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

Maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlar uchun
NAMUNAVIY ETIKA QOIDALARI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlar uchun namunaviy etika qoidalari (keyingi o‘rinlarda – Qoidalar) maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun axloq qoidalari, odob-axloq tamoyillari, xulq-atvor me’yorlariga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

Ushbu Qoidalar maktabgacha ta’lim tashkiloti va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida (keyingi o‘rinlarda — ta’lim muassasalari) faoliyat olib borayotgan pedagog-xodimlar mavqeining daxlsizligini e’tirof etish, inson va uning qadr-qimmati, huquqlariga hurmatni oshirish, yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, odob-axloq qoidalariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarning oldini olish, muloqot madaniyatini rivojlantirish hamda keng jamoatchilikda ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlarga nisbatan hurmat va ishonchni oshirishga qaratilgan.

2. Mazkur Qoidalar:

- ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari hamda ta’lim muassasasi jamoatchiligining boshqa vakillari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish;

- insoniy qadriyatlarni himoya qilish;

- pedagoglarning kasbiy faoliyati sifatini va o‘z kasbining sharafini qo‘llab-quvvatlash;

- ta’lim muassasalarida ishonch, mas’uliyat va adolatga asoslangan madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

3. Qoidalarning maqsadi – ta’lim muassasalarida sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirish, tarbiyalanuvchilar va o‘quvchilarga zamon talablariga muvofiq milliy qadriyatlar asosida ta’lim-tarbiya berish, shaxs va uning qadr-qimmati, huquqlarini hurmat qilish, odob-axloq madaniyati va muloqot qobiliyatini rivojlantirish, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, pedagogik jarayon ishtirokchilari xavfsizligini ta’minlashga imkon beradigan do‘stona ish muhitini yaratish

hamda ta'lim muassasasi mulkini asrab-avaylashdan iborat.

4. Qoidalar ta'lim muassasalari va uning hududida, ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatda, darsda, tanaffusda, darsdan tashqari mashg'ulotlar paytida hamda ta'lim va tarbiya bilan bog'liq tadbirlar davomida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zini tuta bilishini tartibga soladigan me'yorlar to'plami hisoblanadi.

5. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tatbiq etiladi, nodavlat va boshqa turdagi o'quv muassasalari uchun tavsiyaviy xususiyatga ega.

6. Mazkur Qoidalarga rioya qilish ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun ta'lim muassasalari hududi doirasida majburiy hisoblanadi.

2-bob. Pedagog-xodimlarning namunaviy etika qoidalariga rioya qilishi

7. Ta'lim muassasalarida qoidalar O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va qonun osti hujjatlari hamda umuminsoniy axloqiy me'yorlarga asosan o'rnatiladi.

8. Qoidalar insonparvarlik, adolat, professionallik, mas'uliyat, bag'rikenglik, demokratiya, sheriklik va birdamlik kabi asosiy tamoyillarga asoslanadi.

Ta'lim muassasalarida shaffoflik, hamjihatlik, bag'rikenglik, o'zaro ishonch, izzat-hurmat, xavfsiz, do'stona muhitni yaratish pedagog-xodimlarning o'zaro munosabatlaridagi muhim shartlardan biri hisoblanadi.

9. Ta'lim muassasalari har bir tarbiyalanuvchi va o'quvchilarga e'tiborli, odilona munosabatni ta'minlaydi, ta'lim-tarbiya jarayonida barcha tarbiyalanuvchi va o'quvchilarning chuqur bilim va zamonaviy kompetensiyalarni egallashlari uchun teng imkoniyatlarni yaratadi.

10. Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari ta'lim muassasalarida quyidagi etika qoidalariga amal qilishlari lozim:

Pedagog-xodimlarning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari;

o'zaro munosabatlarda yagona jamoa sifatida hurmat, do'stlik, hamjihatlik, halollik va adolat tamoyillariga rioya etishlari;

turli xil zo'ravonlik va kamsituvchi xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslik;

pedagog-xodimlar tasdiqlangan mashg'ulotlar jadvali asosida ishga va darsga o'z vaqtida kelishlari;

pedagog-xodimlar ish vaqtida kasb madaniyati hamda ta'lim muassasalarining Ustavi bilan tasdiqlangan talablarga ko'ra kiyinishlari;

kiyimlarning o'ta tor yoki o'ta keng bichimda bo'lmasligi;

kiyimlarning toza va dazmollangan bo'lishi.

Ta’lim muassasalari Ustavida pedagog-xodimlarning mehnat faoliyati davomida kiyinish madaniyatiga bo‘lgan talablar aks ettirilmagan bo‘lsa, quyidagilar talab etiladi:

erkaklar mavsumga qarab — klassik uslubdagi shim, kostyum-shim *(imkon qadar qora, to‘q ko‘k rangdagi),* ko‘ylak *(oq, havorang va shu kabi),* bo‘yinbog‘, poyabzal *(qora rangda bo‘lishi tavsiya etiladi)* kiyishi;

ayollar mavsumga qarab – klassik uslubdagi yubka, kostyum-yubka *(imkon qadar qora, to‘q ko‘k rangdagi),* havo haroratiga qarab klassik uslubdagi shim *(imkon qadar qora, to‘q ko‘k rangdagi),* tanani ochiq ko‘rsatib turmaydigan yupqa (harir) bo‘lmagan kofta *(oq, havorang va shu kabi),* ko‘ylak, past poshnali yoki poshnasiz poyabzal *(qora rangda bo‘lishi)* kiyishi;

(Ta’lim muassasalari Ustavi bilan ta’lim muassasasi rahbariyati va pedagog-xodimlari formasining rangi va qo‘shimcha belgilariga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin).

turli din va konfessiyalar hamda turli submadaniyatlarga mansubligini aks ettiruvchi kiyimlarda bo‘lmasligi;

umume’tirof etilgan milliy-an’analarga va ma’naviy-axloqiy tarbiyaga zid keladigan yoki sport *(dars jarayonida maxsus yoki sport kiyimida jismoniy tarbiya va chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanlari o‘qituvchilarining yurishiga ruxsat beriladi, shuningdek, ta’lim muassasasi hududida o‘tkaziladigan turli sport va ko‘ngilochar tadbirlar bundan mustasno)* kiyimlarida bo‘lmasligi lozim.

Shuningdek, ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining tashqi ko‘rinishi bo‘yicha quyidagi talablar belgilanadi:

tanasining ochiq qismi tatuirovka tushirilmagan yoki pirsing qilinmagan bo‘lishi, sochi tartibga keltirilgan va yorqin *(g‘ayrioddiy)* ranglarga bo‘yalmagan bo‘lishi;

erkaklarning soqoli olingan bo‘lishi;

ayollar quloq va barmoqlardan tashqari tananing turli qismlariga zirak yoki metall buyumlar taqib yurmasligi;

o‘z faoliyatida manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘ladigan holatlarga yo‘l qo‘ymasliklari;

pedagog-xodimlar huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari bilan tanishib borishi, ularga og‘ishmasdan amal qilishi, mavjud barcha standartlar, bayonlar, tavsiyalardan xabardor bo‘lishlari lozim.

11. Ta’lim muassasasi hududida ishtirokchilarning munosabatlari o‘zaro hurmat va xushmuomalalikka asoslanishi lozim. Biror bir taraf

tomonidan boshqasining shaxsiyatiga zo‘ravonlikni aks ettiruvchi va kamsituvchi xatti-harakatlarning sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi;

ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchi va o‘quvchilar manfaatlari yo‘lida barcha ma’lumotni ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillariga yetkazadi;

pedagog ta’lim muassasasi, oila va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda pozitiv va faolligini namoyish etishi lozim.

12. Pedagog-xodimlarga qo‘yiladigan talablar:

ta’limiy-tarbiyaviy faoliyat va darslarni o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli olib borishi;

mavzudan tashqari mavzularga chalg‘imaslik;

tarbiyalanuvchi va o‘quvchilar shaxsini hurmat qilish;

ta’lim muassasalarida yuzaga keladigan har qanday muammoni qonun, oshkoralik va demokratik asosda hal qilish;

mahalla, jamoat joylarida o‘zini yuksak pedagoglik maqomiga munosib tutish;

doimiy ravishda o‘z-o‘zini shaxsiy va kasbiy rivojlantirib borish;

o‘z yo‘nalishi bo‘yicha tarbiyalanuvchi va o‘quvchilarga Davlat ta’lim standartlari darajasida bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish;

ta’limiy-tarbiyaviy faoliyat va darsdan tashqari tadbirlar davomida tarbiyalanuvchi va o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda faol ishtirok etish;

“Ustoz-shogird” an’anasiga sodiq bo‘lish;

o‘zi yashaydigan mahallada ma’naviy-axloqiy tarbiya, “Mahalla pedagogikasi” muhitini yaratish, mahalla yoshlarini tarbiyalashda kasbiy fidoyilik, tashabbuslar ko‘tarib, “mahalla yettiligi”ga ko‘maklashish;

tarbiyalanuvchi va o‘quvchilarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish yoki ruhiy tazyiq o‘tkazish holatlariga yo‘l qo‘ymaslik;

tarbiyalanuvchi va o‘quvchilarning shaxsiga doir ma’lumotlarni guruhdoshlari va sinfdoshlari oldida muhokama qilmaslik;

tarbiyalanuvchi va o‘quvchilarni ommaviy izza qilmaslik;

tarbiyalanuvchi va o‘quvchining ota-onasi yoki ularning qonuniy vakillari bilan shaxsiy adovatning oldini olish;

ta’lim muassasasi to‘g‘risidagi axborotlardan uning manfaatlari va obro‘siga ziyon yetkazish uchun yoki o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanmaslik;

tarbiyalanuvchi va o‘quvchilarga shaxsan ma’naviy-axloqiy namuna ko‘rsatish, ular bilan do‘stona munosabatda bo‘lish;

ta’lim muassasasi manfaatlariga zid bo‘lgan har qanday xulqdan tiyilish va bunday holatlarning oldini olish;

biror-bir noxush voqea yoki hodisa ro‘y bersa, zudlik bilan ta’lim

muassasasi rahbariyatini xabardor qilish;

yoshlar orasida milliy qadriyatlar, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, ularni zararli odatlardan va boshqa turli halokatli tahdidlar hamda jamiyatimiz uchun yot bo‘lgan diniy ekstremizm, radikalizm ta’sirlaridan, “ommaviy madaniyat” xurujlaridan ogoh etib borish;

o‘quvchilarni darsdan chiqarib yuborish, darsga kiritmaslik kabi holatlarga yo‘l qo‘ymaslik;

ta’limiy-tarbiyaviy faoliyat davomida tarbiyalanuvchilarga qo‘pol munosabatda bo‘lmaslik;

ta’lim-tarbiya mashg‘ulotlarida diniy tashviqot olib bormaslik;

ta’lim muassasasiga spirtli ichimliklar iste’mol qilgan holda kelmaslik;

ta’lim muassasasining hududi va binosida spirtli ichimliklar hamda tamaki mahsulotlarini iste’mol qilmaslik;

ta’lim muassasasi hududi va binosida tarbiyalanuvchi va o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasiga aloqasi bo‘lmagan tadbirlarni tashkil etmaslik lozim.

3-bob. Yakuniy qoidalar

13. Maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasasining pedagog-xodimlari ushbu Qoidalar bilan har yangi o‘quv yili boshida “Pedagogik kengash”da tanishtiriladi.

14. Qoidalarda aks ettirilmagan masalalar yuzasidan vujudga kelgan muammoli vaziyatlar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil 12-iyundagi
187-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

Maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi pedagog-xodimlar uchun namunaviy etika qoidalari bilan barcha ta’lim muassasalari pedagog-xodimlarni tanishtirish

VARAQASI

“Namunaviy etika qoidalari” bilan tanishdim, unga so‘zsiz rioya qilishni o‘z zimmamga olaman.

_____ viloyati _____ tumani ____-sonli maktabgacha/maktab ta’lim tashkiloti pedagog-xodimlari.

T/r	F.I.Sh.	Imzo
1.		
2.		
...		

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan variativ o‘quv rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son va “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmonlari ijrosini ta’minlash hamda umumta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar va ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash, o‘quvchilarning qiziqishlarini inobatga olish, maktab o‘quvchilarining oliy o‘quv yurtlariga tayyorgarlik ko‘rishlariga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida variativ o‘quv rejalarini joriy etish bo‘yicha **tavsiya** 1-ilovaga muvofiq;

Ta’lim **o‘zbek tilida** bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan variativ o‘quv rejalari 2-ilovaga muvofiq;

Ta’lim **rus tilida** bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan variativ o‘quv rejalari 3-ilovaga muvofiq;

Ta’lim **qardosh tillarida** bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan variativ o‘quv rejalari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo‘yilsinki:

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida variativ o‘quv rejalarini joriy qilish **ixtiyoriy** hisoblanadi;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida variativ o‘quv rejalari asosida ta’lim jarayonini tashkil etishda tayanch o‘quv rejada belgilangan umumiy **haftalik dars soatlari hajmi** saqlanib qolinadi.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (G.Kojabayeva) bir hafta muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan variativ o‘quv rejalarini ishlab chiqsin hamda tasdiqlasin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

variativ o‘quv rejalarini barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga yetkazish;

tavsiya etilgan yo‘nalishlar bo‘yicha variativ o‘quv rejalari asosida o‘qitiladigan sinflarni shakllantirishda o‘quvchilar va ota-onalarning xohishlari inobatga olinishini ta’minlash;

variativ o‘quv rejalarini joriy etish, tanlov fanlarini belgilash va sinflarni shakllantirishda umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi Kuzatuv kengashi orqali muntazam jamoatchilik nazoratini o‘rnatish vazifalari yuklatilsin.

5. Respublika ta’lim markazi (Sh. Xudaykulov)ga:

bir oy muddatda variativ o‘quv rejalar asosida tegishli o‘quv dasturlarni va namunaviy taqvim-mavzu rejalarni ishlab chiqish;

joriy yil 15-avgustga qadar ushbu o‘quv dasturlar hamda taqvim-mavzu rejalarni hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazish;

2024-2025-o‘quv yilida variativ o‘quv rejalar joriy etilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni umumlashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 20-iyun,
190-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2024-yil “ 20 ”-iyundagi
190-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida variativ o‘quv rejalarini joriy etish bo‘yicha
TAVSIYA

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu tavsiya quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqildi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son qarori.

2. Maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 7-11-sinflarida variativ o‘quv rejalari **ixtiyoriy ravishda** joriy qilinadi.

3. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quv yili davomida variativ o‘quv rejalari joriy etilgan sinflar (keyingi o‘rinlarda – tanlov sinfi) yo‘nalishini o‘zgartirishga va an’anaviy sinfga aylantirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogika kengashi tomonidan tanlov sinfining yo‘nalishi joriy o‘quv yili yakunlanib, yangi o‘quv yili boshlanishi arafasida o‘zgartirilishi mumkin.

4. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida sinfdagi o‘quvchilar, ularning ota-onalari hamda o‘qituvchilarning uchdan bir qismi norozi bo‘lsa ushbu sinfda variativ o‘quv reja joriy qilinmaydi.

II. Variativ o‘quv rejalarining maqsadi

5. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida variativ o‘quv rejalarini joriy etishning asosiy maqsadi:

o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘quvchining manfaatlarini inobatga olish;

o‘quv jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish;

o‘quvchilarning individual xohish-istaklari, qobiliyatlarini inobatga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etish;

ta’lim muassasalarining o‘zida o‘quvchilarning oliy ta’lim muassasalariga tayyorgarlik ko‘rishlari uchun sharoitlar yaratish va bu orqali ota-onalarning repetitorlarga ortiqcha mablag‘ sarflamasliklariga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish.

III. Variativ o‘quv rejalarini joriy etish tartibi

1-§. Tanlov sinfi

6. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining tegishli buyrug‘i bilan tasdiqlanadigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasi asosida o‘qitiladigan **an’anaviy sinflar** bilan birga, variativ o‘quv reja asosida o‘qitiladigan **tanlov sinfi** ham tashkil etilishi mumkin.

